

“OTA-ONA VA FARZANLARNING KONSTITUTSIYA VA SHARIAT OLDDAGI MAJBURIYATLARI”

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ahmadjanov Muhammadyoqub*

***Annotasiya.** Ushbu maqolada ota-ona va farzanlarning konstitutsiya va shariat oldidagi majburiyatlari. Konstitutsiya Lotincha; constitutio — “tuzilish”, “tuzuk”) — ya’ni qonunlarda mavjud bo‘lgan ota-ona va farzand o‘rtasidagi majburiyatlar shu bilan birgalikda islom shariatida qanday baholanishi haqida so‘z yuritiladi. Eng asosiysi ushbu maqola yoshlarda ijtimoy-tarbiyaviy odo-axloqni rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.*

***Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, modda, shariat, ota-ona, farzand, majburiyat, huquq, odoblar, tarbiya, hadis, axloq*

Avvalo har bir inson bu yorug‘ olamni onasi sababli ko‘rishga muvoffaq bo‘ladi. “Quyoshdan so‘radilar sening taftingdanda issiqroq biror narsa bormi dedilar, Quyoshdedi: Ha mening taftimdanda issiqroq narsa – bu onaning mehridir. Men ona mehri oldida ojizdirman deb javob berdi. O‘limdan so‘radilar, seni to‘sa oladigan, to‘xtata oladigan biror kuch bormi?, O‘lim dedi: meni to‘xtata oladigan va meni to‘sa oladigan narsa bu Ona mehridir, men onaning mehri oldida ojiz bo‘lib qolaman,deb javobberdi”. Otamizni ham biz farzanlar uchun mehri onamiznikidan kam emas. Har birimizni ota-onamiz voyaga yetgunimizcha parvarish qiladilar. Lekin bugungi kunimizda voyaga yetib, ota-onasiga itoat qilmaydigan yoshlarimiz ko‘payib bormoqda. Otasi yoki onasi qarilik yoshiga yetganida esa, ularni “Qariyalar uyi”ga olib borib qo‘ymoqda. Yohud, o‘z uyida bo‘lsa-da ularga yaxshi e’tibor bermayotgan insonlar yoq emas. Bu holatlar shariatimiz va qonunlarimizga umuman tog‘ri kelmaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida

“Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”, deb belgilab qo‘yilgan.[1] Hasan Basriy rohimahulloh aytadilar: “Onang bilan kechki ovqatni birga qilishing, u bilan hamsuhbat bo‘lishing, seni ko‘rib shodlanishi, sen uchun haj qilishdan yaxshiroq”, - deganlar. Ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda Rosululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Eng tez vaqt ichida qabul bo‘ladigan duo ota-onaning farzandi haqqiga qilgan duosidir”. [2]

Demak, biz otaonalarimiz keksalik yoshiga yetganlarida ular bilan yaxshi muomalada bo‘lishimiz ham dinimiz va konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

Bugungi kunda o‘z farzandlarini qarovsiz qoldirib, ularni bolalar uyiga tashlab ketayotganlar ham yo‘qemas. Farzandlar bilan yashashalarda, ularga yaxshi muomilada bo‘lmayotgan, moddiy va ma‘naviy jihatdan hech qanday yordam berilmasligi sababidan o‘g‘rilik, tovlamachilik kabi jinoyatlar, yoki ma‘naviy qoloklik, odobsizlik kabi holatlar yuzaga kelmoqda.

Bu holatlar uchun ham Konstitutsiyamizning 64-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”, [1] deb belgilab qo‘yilgan. Dinimizda esa Robbing faqat Uning O‘zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga “Uff”, dema, ularga zajr qilma va ularga karamli so‘z ayt! (Isro surasi, 23-oyat) [3] Bu jumlaning “uff” so‘ziga bog‘liq ikki xil ma‘nosi bor. Bir ma‘nosi – “Ota onaga yomon so‘z aytib, behurmat qilma”, degani bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi – “Otaonang oldida «Uff», dema, ular “Bolam og‘ir holga tushibdi”, deb ozorlanadilar» deganidir. Har-bir musulmon kishi farzandlari va oilasini boqishi farzdir. Hech bir davlatda ota-onasini boqish tog‘risida qonun yo‘q. Lekin bizning Konstitutsiyamiz o‘z an‘analarimiz ya‘ni insonlarning manfaati va odamiylik yuzasidan kelibchiqqan holda qabul qilingan.

Xulosa qilib aytganda majburiyatlar barcha yaxshi fazilatlarning boshi, ildizi, asosi hisoblanadi. Chunki majburiyat bo‘lsa har-qanday yaxshilikka

erishsa bo'ladi. Shuningdek ilim ham albatta vazifa, majburiyat bilan birtanubirjondir.

Bu esa, o'z navbatida jamiyatda insonlarni tinch-totuv yashashiga olib keladi. Yoshlar tarbiyasini shakillanishda muhim ro'l o'ynaydi. Bugun yoshlarni ham ma'nan ham jismonan yetuk qilib yuksaltirish zamon talablaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu globallashuv jarayonida yoshlarimiz ongini zararli g'oyalardan himoya qilib, ularning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanish bizning zimmamizdadir. Muhtaram yurtboshimiz ham yoshlarning tarbiyasiga katta e'tibor qaratgan. Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo'ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo'li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko'p mehnat sarf qilishgato'g'rikeladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. <https://nrm.uz/contentf>
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar–T.: Hilol nashr, 2020.–455b.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi–Toshkent. 2001.–857b.